



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 12-avgust, chorshanba,
70 (24.250)-son

O'zbek xalq
maqoli

Yaxshi
xunuk libos
bilan ham
yaxshi

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz

MUSTAQILLIK

35



YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!



Bolalar ijtimoiy himoyasi takomillashadi

Oliy Majlis Senatining o'n yettinchi yalpi majlisi kundalik hayotda uchrayotgan muammoli masalalarga e'tibor qaratilgani bilan muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining tuzilmasi hamda davlat fuqarolik xizmati tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonun ko'rib chiqildi.

Majlisda professional davlat boshqaruvi tizimini yaratish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilayotgani davlat xizmatchilari ishinining natijadorligini ta'minlash, aholining davlat xizmatiga bo'lgan ishonchini yanada oshirishga xizmat qilayotgani qayd etildi.

Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi negizida Boshqaruv samaradorligi agentligi tashkil etildi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuriga o'tkazildi, shuningdek, davlat fuqarolik xizmati tizimi takomillashtirildi.

Shu munosabat bilan qonunchilik hujjatlarining o'zaro muvofiqligini ta'minlash, davlat fuqarolik xizmati, sud, prokuratura, ichki ishlar va bojxona organlari, Milliy gvardiyada xizmatni o'tash tizimi va tartibini takomillashtirish yuzasidan ayrim qonunlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Jumladan, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi negizida tashkil qilingan Boshqaruv samaradorligi agentligining huquqiy maqomi mustahkamlanib, davlat fuqarolik xizmatiga oid hujjatlarni majburiy kelishish tizimi joriy etilmoqda. Prokuratura, ichki ishlar, Milliy gvardiya xodimlari va sudyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga ishga o'tganda ularning avvalgi xizmat joyi bo'yicha kadrlar xazirasida saqlanib qolishi kafolatlanmoqda.

Qonun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlar samaradorligini oshirishga, davlat fuqarolik xizmatini o'tash tartibini takomillashtirishga hamda Milliy gvardiya, sud, prokuratura, ichki ishlar va bojxona organlarining faoliyati uchun munosib shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Yalpi majlisda "Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi takomillashti-

rilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonun ham ko'rib chiqildi.

Muhokama jarayonida ta'kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularni har qanday zo'ravonlik shakllaridan himoya qilish hamda bolalar uchun xavfsiz ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda ta'lim tashkilotlarida tarbiya va ta'lim berish jarayonida voyaga yetmagan bolalarga nisbatan jismoniy zo'ravonlik sodir etganlik, shuningdek, ularni tahqirlaganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilanmoqda.

Bundan tashqari, pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonida voyaga yetmaganlarga nisbatan jismoniy va (yoki) ruhiy zo'ravonlikka oid huquqbuzarlik sodir etganligi uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxslarga nisbatan bir yil muddat davomida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emasligi nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, davlat yoki nodavlat muassasasining to'liq ta'minotida bo'lgan bola uchun ota yoki onani aliment to'lashdan ozod qilishga yo'l qo'yilmasligi belgilanmoqda.

Shu bilan birga, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar oilaga tarbiyaga faqat ularning qarindoshlariga berilishi qoidasi joriy etilmoqda.

Ushbu Qonun bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, ta'lim muassasalarida ularning qadr-qimmatini va daxlsizligini ta'minlash bo'yicha huquqiy kafolatlarni mustahkamlashga zamin yaratadi.

Maryam NIYOZOVA,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

Nukuslik bemorlar

Samarqandda operatsiya qilindi

Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Samarqand filialida Nukus tumanidan kelgan bemorlarda jarrohlik amaliyoti o'tkazilib, ularning salomatligi tiklandi.

– Viloyatimiz mas'ullarining Nukusga safari davomida berilgan topshiriqlar hamda hudud aholisining murojaatlari asosida shifoxonamizda Orolbo'yidan kelgan uch nafar bemorda jarrohlik amaliyotlari bajarildi, – deydi Respublika ixtisoslashtirilgan ko'z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Samarqand filiali direktori Botir To'xtayev. – Ular uzoq vaqtdan buyon asoratli katarakta xastaligidan aziyat chekkan, bir bemor hatto ikki yildan buyon ko'rmay qolgan ekan. Ular bir necha kun shifoxonada bo'lib, muvaffaqiyatli jarrohlik amaliyotlaridan so'ng yana o'z yurtiga qaytib ketdi.

– Keyingi uch oyda ko'zlarim ancha xiralashib qolgandi, – deydi Irigul Davletniyozova. – Samarqandlik shifokorlar ko'rikdan o'tkazib, operatsiya qilsak, yana avvalgidек ko'ra boshlaysiz, deganlarida ishonmagan edim. Xudoga shukr, Samarqandga kelib, uch kunda dardan qutuldim, shifokorlarga ming rahmat!



Imom Moturidiy majmuasi ko'rkam ziyoratgoh bo'ladi

Samarqand shahridagi Imom Moturidiy majmuasida ulkan bunyodkorlik, obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbarining qaroriga ko'ra, o'tgan yil yurtimizda aqida ilmi asoschisi Abu Mansur Moturidiy tavalludining 1155 yilligi keng nishonlandi. Aqida ilmidagi Abu Mansur Moturidiyning ilmiy merosi butun musulmon olami uchun beqiyos ahamiyatga ega.

Ana shu ulug' zotga munosib ziyoratgoh barpo etish maqsadida Samarqand shahridagi Chokardiza qabristoni hududida Imom Moturidiy majmuasini qayta ta'mirlash va obodonlashtirishga kirishilgandi.

Hozirgi kunda 12 gektar hudud mutlaqo yangi qiyofa kasb etmoqda. Yangi masjid, muzey, muhtasham peshtoq va ayvonlar barpo etilmoqda. 2000-yilda qurilgan maqbara rekonstruksiya qilinib, uning gumbazi qayta tiklandi. E'tiborlisi, qurilish ishlari davomida buyuk faqih Burhoniddin Marg'inoniy dafn etilgan joy aniqlanib, uning maqbarasi va ko'rkam ayvon qurilyapti. Chokardiza qabristonida esa ulug' ajdodlarimiz xotirasiga ehtirom sifatida dahma barpo qilindi.

– Majmua qurilishida korxonamiz ishchi-xodimlari bilan birga Xitoy,

Turkiya, Eron qurilish kompaniyalari mutaxassislari, mahoratli ustalar ham ishtirok etmoqda, – deydi bosh pudratchi – "Samtexnostroyinvest" mas'uliyati cheklangan jamiyati ish boshqaruvchisi Navro'z Safarov. – Shu paytgacha hududdagi barcha obyektlarning asosi qurilib, hozirda bezak berish, obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Ikki maqbara, masjid va muzey gumbazlari eronlik ustalar tomonidan bezatildi. Hozirda bu inshootlarning ichki qismlari xorijdan keltirilgan noyob toshlar bilan pardozlanmoqda. Ziyoratgoh hududida o'ziga xos landshaft dizayni asosida yashil maysazorlar, yo'laklar barpo etilmoqda. Mahalliy navlar bilan birga xorijdan yurtimiz iqlim sharoiti va tabiiy muhitiga mos noyob daraxt va buta ko'chatlari keltirilib, o'tqazildi. Hududda tarixiy manbalarda qayd etilgan qadimiy hovuz gilmoya asosida qayta tiklandi.

Majmua oldidan Panjikent ko'chasiga chiqadigan yangi yo'l ochilib, atrofida hunarmandlar markazi, mehmonxonalar qurilmoqda. Shuningdek, qadimiy Buxoro ko'chasi rekonstruksiya qilinib, piyoda yurishga mo'ljallanmoqda va buning natijasida Registon maydoni, Imom Moturidiy majmuasi hamda Shohi Zinda yodgorligi bitta sayyohlik yo'nalishi bo'ladi.

Alisher ISROILOV.

O'ZBEK VA QOZOQ ADABIY ALOQALARI ABAY IJODI MISOLIDA

Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati institutida qozoq xalqining buyuk shoiri Abay Qo'nonboyev tavalludining 181 yilligiga bag'ishlangan davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

Tadbirda Qozog'iston Respublikasining Samarqanddagi Bosh konsuli Talgat Sharipov, Samarqand davlat universiteti professori Ibodulla Mirzayev va boshqalar Abay Qo'nonboyevning boy ijodiy merosi, uning o'zbek va qozoq xalqlari o'rtasidagi adabiy-madaniy aloqalarni rivojlantirishdagi o'rni haqida fikr yuritdilar. Shuningdek, O'zbekistonda qozoq xalqining ulug' ijodkori hayoti va ijodini o'rganishga alohida e'tibor qaratilayotgani ta'kidlandi.

Xususan, professor Ibodulla Mirzayev Abay Qo'nonboyevning «Qozog'im, sho'rli yurtim!» nomli mashhur she'ri talhliga to'xtalib, asarda milliy dard, achchiq kinoya va xalq taqdiriga bo'lgan chuqur mas'uliyat yuksak badiiy mahorat bilan ifodalanganini ta'kidladi.

Professor I.Mirzayevning mazkur mavzuga bag'ishlangan maqolasini quyidagi havola orqali Zarnews.uz saytida o'qishingiz mumkin.



► Kун mavzusi

Kўmir sanoatida yangi tizim joriy etildi. Endi kўmir narxлари бозор таъминлари асосида шаклланади, аҳоли таъминотчини мустақил танлаш имкониятига эга бўлади. Шу билан бирга, ижтимоий ҳимояга муҳтож оилалар давлат томонидан компенсация орқали қўллаб-қувватланади.

Мамлакатимизда иқтисодиётнинг турли тармоқларида амалга оширилаётган ислохотлар жараёнида кўмир санаоти ҳам янги босқичга қадам қўйди. Президентимизнинг 2026 йил 26 майдаги «Кўмир санаотида бозор механизмлари жорий этишнинг шериклик асосида ижтимоий соҳа объектиларини бошқараётган ташкилотлар ҳамда аҳоли истеъмолчиларини бозор нархлари асосида кўмир ёқилгиси билан таъминлайди, – дейди «Кўмир таъминот» МЧЖ вилоят филиали директори Фирдавс Низомов. – Ўтган

Энди арзон кўмир йўқ

мавсумда аҳолига маҳаллалар орқали етказиб берилган бир тонна кўмининг нархи 309,8 минг сўм бўлган бўлса, жорий мавсумдан бошлаб бир тонна кўмир нархи 641 минг сўм этиб белгиланди. Нархнинг ўзгариши соҳада эркин бозор механизмларининг жорий этилиши билан боғлиқ.

Жумладан, Вазирлар Маҳкамасининг 2026-йил 30-июлдаги «Кўмир санаотида бозор механизмлари жорий этилиши муносабати билан ижтимоий реестрга киритилган оилаларни қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарорига асосан бюджет ташкилотлари давлат харидлари электрон савдолар орқали кўмир харидини амалга оширадilar. Ижтимоий реестрга киритилган оилаларга бир йил давомида харид қилинган хар бир тонна кўмир учун 300 минг (600 минг сўмдан ошмаган миқдорда) сўмдан компенсация тўлаб берилади.

Янги тизим аҳоли учун ҳам қатор қулайликларни яратмоқда. Энди фуқаролар интерактив электрон портал орқали кўмининг нархи, сифати ва етказиб бериш шартларини таққослаб, ўзи учун энг мақбул тадбиркорлик субъектини танлайди. Шунингдек, кўмирни яшаш манзилига етказиб бериш ёки умумий тарқатиш пунктдан олиб кетиш хизматини эркин танлаш имконияти мавжуд.

Бюджет ташкилотлари эса кўмир харидини давлат харидлари электрон савдо платформала-

ри орқали амалга оширади. Агар истеъмолчилар таъминотчини мустақил танлаш имкониятига эга бўлмаса, уларга «Кўмир таъминот» МЧЖ томонидан кафолатланган тартибда кўмир етказиб берилади.

Вилотиямизда куз-қиш мавсумига тайёр-гарлик ишлари режа асосида давом этмоқда. Нархлар ўзгарганлиги сабабли бюджет ташкилотлари билан шартномалар тузиш жараёни бироз кечиккан бўлса-да, бугунги кунда «Кўмир таъминот» МЧЖ вилоят филиали электрон платформа орқали шартнома тузган ташкилотларга кўмир етказиб бериш ишларини амалга оширмоқда. «Ўзбеккўмир» АЖ томонидан буортмалар ўз вақтида ва тўлиқ ҳажмда бажарилаётгани таъминотнинг барқарорлигини таъминламоқда.

Айни вақтда барча шаҳар ва туманларда филиалга қарашли 8 та ҳудудий кўмир омбори ва 4 та савдо шахобчасида кўмир захираси яратилган. 128 нафар ходим ҳамда 10 та махсус техника куз-қиш мавсумида аҳоли ва ижтимоий соҳа объектиларини узлуксиз кўмир билан таъминлашга сафарбар этилган.

Кўмир соҳасида бозор механизмларининг жорий этилиши рақобат муҳитини кучайтириш, хизматлар сифатини ошириш ва истеъмолчилар учун кенг танлов имкониятларини яратди.

Дилмурод ТЎХТАЕВ,
"Зарафшон" мухбири.

Sanoat zonalari – TADBIRKORLIK UCHUN IMKONIYAT

Joriy yilda Kattaqoʻrgʻon shahrida iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish uchun 150 million (manzilli loyihalar hisobidan 65 million, istiqbolli loyihalar hisobidan 85 million) dollar investitsiya jalb etish rejalashtirilgan. Yilning dastlabki choragida 26 million dollardan ortiq sarmoya kiritilishiga erishdik.

Jumladan, Xitoy davlati sarmoyadorlari bilan hamkorlikda volfram konlarini oʻzlashtirish, turkiyalik tadbirkorlar sarmoyasi koʻmagida polietilen mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkillashtirish loyihalariga toʻgʻridan toʻgʻri sarmoyalar jalb etildi. Shuningdek, hududiy investitsiya dasturi doirasida joriy yilda qiymati 52,8 milliard soʻmlik 58 ta loyihani amalga oshirish hisobiga 786 ta yangi ish oʻrni yaratish choralari koʻrilmoqda.

Bu albatta, eksport salohiyatining oshishiga ham hissa qoʻshadi. Yil boshida 50 million dollarlik mahsulot eksport qilishni rejalashtirgandik, yilning birinchi yarmidayoq belgilangandan koʻra deyarli ikki baravar koʻp mahsulot sotishga erishdik.

2026-2027-yillarda 154 million dollarlik volfram qazib olish va qayta ishlash loyihasi doirasida joriy yilda 65 million dollar sarmoya jalb etilmoqda. Ushbu loyiha doirasida 200 ta yangi ish oʻrni, yiliga 125 milliard soʻmlik hajm yaratilib, budjetga qoʻshimcha 3,9 milliard soʻm mablagʻ tushadi.

Kvarts toshlarni qayta ishlash loyihasi doirasida 2026-yilda 8,5 million dollar sarmoya jalb etilmoqda. Ushbu loyiha ishga tushishi bilan 40 nafar fuqaro doimiy ish oʻrniga ega boʻladi va 35 milliard soʻmlik mahsulot ishlab chiqarilib, budjetga qoʻshimcha 1,1 milliard soʻm tushum tushishi taʼminlanadi.

Aholining ehtiyoji va bozor talabidan kelib chiqib, **“MEGA MEBEL TREDE”** MChJning 2 million dollar sarmoyasi asosida hududda zamonaviy mebellar ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyilmoqda. Ushbu loyihaning ishga tushirilishi 50 nafar yoshning bandligini taʼminlash bilan birga yiliga 42 milliard soʻmlik hajm yaratish imkonini beradi. **“DENIM COLLECTION”** MChJ bir million dollarlik sarmoyasi hisobidan erkak va ayollar liboslari, shuningdek, maxsus kiyimlar ishlab chiqarishni tashkil etadi. Bu loyihaning amalga oshirilishi 200 nafar xotin-qizni ish bilan taʼminlab, yiliga 25 milliard soʻmlik mahsulot ishlab chiqarishga xizmat qiladi.

Albatta, har bir hududda tadbirkorlikning rivojlanishida sohaga endi kirib kelayotgan yosh ishbilarmonlarni hi-moyalash, ularga har tomonlama koʻmak berish muhim ahamiyatga ega. Shu bois ularga ishni dastlab kichik sanoat zonalaridan boshlashni taklif etamiz. Chunki sanoat zonalarida kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish, uskunalar keltirish va boshqa masalalarda yengilliklar yaratilgan. Qolaversa, bunday zonalarda katta tadbirkorlardan tajriba oʻrganish imkoniyati bor.

Kattaqoʻrgʻon shahrida jami 20,8 gektar maydonda 5 ta sanoat zonası tashkil etilib, qiymati 233,9 milliard soʻmlık 62 ta loyiha joylashtirilgan. Kichik sanoat zonalarining aksariyati shahar markazidan 2-4 kilometr masofada joylashganligi ham tadbirkorlarga qulaylik yaratadi.

Masalan, **“Kattaqoʻrgʻon MTP”** kichik sanoat zo-



nasida 2 gektar yer maydoni 2 ta lotga boʻlinib, 24,4 milliard soʻmlık 2 ta loyihadā 10 ta ish oʻrni yaratilgan. “Ingichka koni” AJda 4 gektar maydonda qurilish materiallari, gips ishlab chiqaruvchi 10 ta loyiha ishga tushgan. “Qoʻshhovuz-1” kichik sanoat zonasida 1,3 gektar yer maydoni 13 ta lotga boʻlingan. Hozirda 30,3 milliard soʻmlık 10 ta loyiha tadbirkorlarga auktsion orqali ajratilgan va barcha lotlarda qurilish ishlari davom etib, 2 ta lot ishga tushdi. “Qoʻshhovuz-2” kichik sanoat zonasida 0,67 gektar maydon 7 ta lotga boʻlinib, 14 milliard soʻmlık 1 ta loyiha auktsion orqali tadbirkorga ajratilgandi, biroq lotlarda qurilish ishlari vaqtida bajarilmaganligi sababli yer maydoni boʻyicha belgilangan tartibda sudga daʼvo arizasi kiritildi.

Qoʻshhovuz kichik sanoat zonasi hududidagi eng katta ishlab chiqarish maydoni hisoblanadi. Mazkur sanoat zonasi uchun 12,1 gektar yer ajratilib, 18 ta lotga boʻlingan holda auktsion savdolariga chiqarilgan. Mazkur kichik sanoat zonasida 350,9 milliard soʻmlık 18 ta loyiha doirasida 300 nafarga yaqin fuqaro uchun ish oʻrni yaratilishi belgilangan. Bu yerda hozirgacha 7 ta sanoat loyihasi ishga tushirilgan boʻlsa, yana 11 ta lotda qurilish, taʼmirlash ishlari olib borilmoqda.

Shaharning **Yermachit mahallasida joylashgan “Kattaqoʻrgʻon” AJ kichik sanoat zonasida** “CLASSIK MOTOR” va “CLASSIK MOTOR POVER” MChJlar tomonidan mebellar uchun plastmassa jihozlar, qishloq xoʻjalik mahsulotlari uchun qutilar, umuman, polietilen mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Shuningdek, buyurtma asosida neft, gaz mahsulotlari tashuvchilar uchun 5-40 tonnagacha va undan ortiq hajmdagi sisterna (avtotsisterna) ishlab chiqarilmoqda. 2 gektar maydonda joylashgan mazkur sanoat zonasida 40 dan ortiq mahalliy yoshlar ichki bozor ehtiyojlari uchun sifatli mahsulotlar tayyorlamoqda.

Bir-ikki yil avval kichik sanoat zonalarida joylashgan korxonalarga ishchi boʻlib kelib, ishni oʻrgangach, bugun mustaqil tadbirkorlik faoliyatini boshlayotganlari ham talaygina. Qolaversa, tadbirkorlik sohasiga endi kirib kelgan su-byektlar tarmoqni kengaytirib, yangi yoʻnalishlar ochmoqda. Shuning uchun kichik sanoat zonali tadbirkorlikda yangi pogʻonaga koʻtarilish, ishlab chiqarishni yangi bosqichga chiqarishda muhim burilish yasamoqda.

Ikrom MAMATOV,
Kattaqoʻrgʻon shahar hokimi oʻrinbosari.

Bozorlar faoliyatini zamonaviy talablar asosida tashkil etishning huquqiy poydevori Prezidentimizning 2010-yil 26-apreldagi “Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori bilan mustahkamlangan. Mazkur qarorda bozorlarni boshqarish tizimini takomillashtirish, aholiga xizmat koʻrsatish sifatini oshirish, koʻrsatiladigan xizmatlar hajmini kengaytirish hamda bozorlar va savdo komplekslaridagi pul oqimlarini toʻliq hisobga olish asosiy vazifalar sifatida belgilangan.

41 ta bozor va savdo kompleksi raqamlashtirildi

Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida iqtisodiyotning real sektori, moliya va boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish darajasini 2026-yil yakuniga qadar 70 foizga yetkazish vazifasi belgilangan. Shuningdek, hududlarda zamonaviy bozorlar va savdo komplekslarini tashkil etish, savdo va xizmat koʻrsatish infratuzilmasini rivojlantirish nazarda tutilgan.

Prezidentimizning 2026-yil 19-maydagi farmoni bilan soliq maʼmuriyatchiligida zamonaviy yondashuvlarni joriy etishning yangi bosqichi boshlandi. Farmonga muvofiq, 2026-yil 1-iyuldan davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori boʻlgan dehqon bozorlari va savdo komplekslari balansidagi noturarjoy obyektlarini ijarasiga berish faqat “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali amalga oshirilishi belgilandi. Bu tartib boʻsh savdo joylarini taqsimlashda ochiqlikni taʼminlash va manfaatlar toʻqnashuvining oldini olishga xizmat qiladi.

Sohadagi eng muhim yangiliklardan biri Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 2-iyuldagi “Bozorlar va savdo komplekslarida raqamlashtirish ishlari samarali tashkil etish hamda maishiy korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori boʻldi. Ushbu qaror bozorlar, savdo komplekslari va ularga tutash avtoturargohlarni raqamlashtirish, yagona axborot tizimini joriy etish, toʻlovlar shaffofligini taʼminlash hamda xufyona iqtisodiyotning oldini olishga qaratilgan.

Qarorga muvofiq, **2026-yil 1-oktabrga qadar** “Soliq” axborot tizimlari kompleksi tarkibida “E-bozor” yagona raqamli bozor platformasi sinov

tarzida, 2027-yil 1-martga qadar esa toʻliq amaliyotga joriy etiladi. Platformada bozor va savdo komplekslarining elektron pasporti, manzili, ixtisoslashuvi, ish tartibi, savdo shoxobchalari va boʻsh savdo oʻrinlari haqidagi maʼlumotlar ochiq eʼlon qilib boriladi. Fuqarolar bozor maʼmuriyatiga elektron murojaat yuborishi va unga javob olishi mumkin boʻladi.

Shuningdek, bir martalik yigʻimlar, ijara toʻlovlari va koʻrsatilgan xizmatlar uchun toʻlovlarni elektron hisobga olish, kunlik tushumlarning haqqoniyligini monitoring qilish, QR-kod orqali toʻlovlarni qabul qilish, onlayn nazorat-kassa texnikalarini joriy etish hamda avtoturargohlardagi elektron shlabbaumlarni soliq organlari-niing axborot tizimiga integratsiya qilish belgilangan.

Mazkur qarorda viloyatdagi 19 ta bozor va savdo komplekslari kiritilgan. Ular orasida “Siyoab dehqon bozori”, “Temiryoʻl dehqon bozori”, “Samarqand ipak yoʻli savdo majmuasi”, “Samarqand shodiyonasi”, Urgut, Kattaqoʻrgʻon, Oqdaryo, Bulungʻur, Jomboy, Ishtixon, Narpay, Paxtachi va Tolyoq tumanlaridagi bozorlar hamda “Samarqand innovatsion avtomobil bozori” mavjud.

SAMARQAND TAJRIBASI

Viloyatda davlat ulushi mavjud boʻlgan 56 ta bozor va savdo kompleksini raqamlashtirish boʻyicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunga qadar ularning 41 tasi, yaʼni 73,2 foizi “REAL SOFT” MChJ tomonidan raqamlashtirildi.

Raqamlashtirilgan obyekt-larning 27 tasi dehqon bozori, 9 tasi savdo kompleksi, 5 tasi ixtisoslashtirilgan bozordir.

Ishlar uch navbatda tashkil etilgan. Birinchi navbatda 19 ta, ikkinchi navbatda 9 ta va uchinchi navbatda 13 ta bozor hamda savdo komplekslari raqamlashtirildi. Qolgan 15 ta obyektida, yaʼni 26,8 foiz bozor va savdo komplekslarida raqamlashtirish ishlari yakunlash choralari koʻrilmoqda.

Joriy etilgan axborot tizimi orqali savdo rastalari va doʻkonlar, ijarachilar, shartnomalar, belgilangan tariflar, ijara va bir martalik yigʻimlar, koʻrsatilgan xizmatlar hamda kunlik tushumlar elektron hisobga olinmoqda. Bu esa mablagʻlarning toʻliq kirimi qilinishini taʼminlash, naqd puldagi nazoratsiz hisob-kitoblarni qisqartirish va boshqaruv qarorlarini aniq maʼlumotlar asosida qabul qilish imkonini bermoqda.

Endilikda asosiy vazifa raqamlashtirilgan 41 ta bozor va savdo kompleksidagi maʼlumotlarning haqqoniyligini taʼminlash, kunlik tushumlarni oʻz vaqtida kiritish, ularni bank hisobvaraqlaridagi mablagʻlar bilan solishtirish va amaldagi axborot tizimlarini “E-bozor” yagona platformasiga integratsiya qilishdan iborat.

Raqamlashtirish - bu shunchaki yangi dastur oʻrnatish emas. U bozorlarda ochiqlik va hisobdorlikni taʼminlaydigan, tadbirkorlarga teng sharoit yaratadigan, aholiga qulaylik olib keladigan va korrupsiya omillarini qisqartiradigan zamonaviy boshqaruv mexanizmidir. Viloyatda amalga oshirilayotgan ishlar ham aynan shu maqsadlarga xizmat qilmoqda.

Abror RAJABOV,
viloyat bozorlar va savdo komplekslari uyushmasi raisi.

Jamiyat taraqqiyoti, avvalo, undagi tinchlik va xavfsizlik muhiti bilan belgilanadi. Qayerdagi odamlar ertangi kuniga ishonch bilan yashasa, farzandlarini xotirjam tarbiyalasa, tadbirkorlik va mehnat qilish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan boʻlsa, oʻsha hududda taraqqiyot ham izchil boʻladi. Shu maʼnoda, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida belgilangani bejiz emas.

Bugungi kunda Prezidentimiz tashabbusi bilan mahallalarda xavfsiz muhitni taʼminlash, jinoyatchilikning barvaqt oldini olish hamda profilaktika ishlari mutlaqo yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, joriy yilning 5-yanvar kuni qabul qilingan “Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yoʻnalishida yaxlit manzilli ishlar tizimini joriy etishga qaratilgan qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarorlar sohadagi ishlarni mutlaqo yangi yondashuv asosida tashkil etishga xizmat qilmoqda. Mazkur qarorlar profilaktika subyektlari, mahalla yetiligi va barcha masʼul tashkilotlar zimmasiga yanada katta masʼuliyat yukladi.

Oʻtgan olti oy mobaynida viloyatda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini mustahkamlash hamda aholi xavfsizligini taʼminlash maqsadida keng koʻlamli ishlar amalga oshirildi. Eʼtiborli jihati shundaki, bugun profilaktika faqat huquqiy taʼsir choralari bilan cheklanmay, inson omiliga, ijtimoiy qoʻllab-quvvatlashga va muammoning ildizini bartaraf etishga qaratilmoqda.

Buning yorqin misoli sifatida **tazyiq va zoʻravonlikdan jabr koʻrgan 3 ming 663 nafar ayolga** himoya orderlari berilganini koʻrsatish mumkin. Bu nafaqat ularning huquqlarini himoya qilish, balki oilada yuz berishi mumkin boʻlgan yanada ogʻir ijtimoiy oqibatlarining oldini olishga xizmat qildi. Shuningdek, **farzand tarbiyasiga masʼuliyatsiz munosabatda boʻlgan 11 ming 60 nafar ota-ona** maʼmuriy javobgarlikka tortildi. Bu raqamlar ishga masalasi jinoyatchilik profilaktikasining muhim boʻgʻini ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Profilaktika ishlarida aholini ish bilan taʼminlash ham asosiy yoʻnalishlardan biriga aylandi. **Kriminogen vaziyati ogʻir va “qizil” toifaga kiritilgan mahallalarda 7 ming 705 nafar ishsiz fuqaro** aniqlanib, ularning

Xavfsiz mahalla – BARQAROR JAMIYAT POYDEVORI

qariyb 3 ming nafari doimiy ish bilan taʼminlandi. Bandlikning taʼminlanishi faqat iqtisodiy barqarorlik emas, balki huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishda ham muhim omil hisoblanadi. Chunki doimiy daromad manbaiga ega insonning jinoyat sodir etish ehtimoli sezilarli darajada kamayadi.

Muqaddam sudlangan va maʼmuriy nazoratda turgan shaxslar bilan manzilli ishlar ham alohida eʼtibor markazida boʻldi. Jami 2 ming 586 nafar fuqaro oʻrganiib, 2 ming 62 nafarining sogʻligʻini tiklashga koʻmaklashildi, 359 nafari ishga joylashtirildi, 130 nafarining ijtimoiy-maishiy muammolari hal etildi, 25 nafariga moddiy yordam berildi, 10 nafari kasb-hunarga yoʻnaltirildi. Bu raqamlar davlatning jazolashdan koʻra insonni qayta ijtimoiylashtirishga qaratilgan siyosati izchil davom etayotganini koʻrsatadi.

Ijtimoiy profilaktika tizimi orqali profilaktika inspektorlari tomonidan **99 ming 369 nafar alohida toifadagi shaxslarga** nisbatan xulosalar tayyorlandi. Ularning orasida huquqbuzarlikka moyil yoshlar, nizoli oilalar, ogʻir ijtimoiy ahvoldagi xotin-qizlar, spirtli ichimliklarga ruju qoʻyganlar, ishsizlar hamda turli ijtimoiy muammolarga duch kelgan fuqarolar mavjud. Muhimi, mazkur shaxslarning 88 foiziga turli koʻrinishdagi ijtimoiy yordamlar koʻrsatildi. Yuzlab fuqarolar ishga joylashtirildi, minglab insonlar oʻzini oʻzi band qilish imkoniyatiga ega boʻldi, tadbirkorlik faoliyati uchun imtiyozli kreditlar ajratildi, tibbiy va ijtimoiy yordamlar koʻrsatildi. Bu esa profilaktikaning asosiy maqsadi jazolash emas, balki insonni hayotga qaytarish ekanini anglatadi.

Shu bilan birga, sohada hal etilishi lozim boʻlgan masalalar ham yoʻq emas. Ayrim mahalla yetiligi aʼzolarining xizmat vazifalariga masʼuliyatsiz munosabatda boʻlgani oqibatida 879 ta xulosa koʻzboʻyachilik asosida rasmiylashtirilgani uchun qaytarilgan. Yana 348 ta xulosa oʻz vaqtida qabul qilinmagani sababli amaliy jiroga qaratilgan. Bu esa baʼzida profilaktika ishlari rasmiyatchilik asosida tashkil etilayotganini koʻrsatadi.

Eng tashvishlisi, profilaktika ishlaridagi ana shu kamchiliklar oqibatida **qoʻshma xulosa berilgan ayrim obyektlarda 24 ta jinoyat sodir etilishiga yoʻl**



qoʻyilgan. Demak, hujjatlarni rasmiylashtirishning oʻzi yetarli emas. Eng muhimi, qabul qilingan qarorlar oʻz vaqtida va toʻliq ijro etilishi, har bir fuqaro bilan individual ishlar taʼminlanishi lozim. Bu borada mahalla yetiligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa mutasaddi tashkilotlar oʻrtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish dolzarb vazifa boʻlib qolmoqda.

Jinoyatchilik holati tahlil qilindanda ham ijobiy va salbiy tendensiyalar bir vaqtning oʻzida kuzatilmoqda. **Joriy yilning olti oyida viloyatda qayd etilgan umumiy jinoyatlar soni 6 ming 987 tani tashkil etdi. Bu oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 1 ming 875 taga koʻpdir.** Biroq bu koʻrsatkichlarni chuqur tahlil qilish ularning tarkibi turlicha ekanini koʻrsatadi. Jinoyatlarning qariyb yarmi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilgan boʻlib, raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan sharoitda kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishning dolzarbligi yanada oshib bormoqda.

Shu bilan birga, profilaktika choralari natijasida **oldini olish mumkin boʻlgan jinoyatlar soni oʻtgan yilga nisbatan 278 taga kamaygan** ham muhim natija hisoblanadi. Bu profilaktika tizimi toʻgʻri yoʻnalishda ishlayotganini koʻrsatadi. Biroq ushbu toifadagi jinoyatlar ichida oʻgʻirlik va firibgarlik hali ham asosiy oʻrinni egallab turibdi.

Oʻgʻirlik jinoyatlarining katta qismi xonadonlar,

chorva mollari, savdo obyektlari, transport vositalari va mobil telefonlar bilan bogʻliq hollarda sodir etilgan. Bu esa aholining mol-mulk xavfsizligini taʼminlash, vid-eokuzatuv tizimlarini kengaytirish, tungi patrul xizmati samaradorligini oshirish hamda fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish zarurligini koʻrsatadi.

Firibgarlik holatlarining tahlili ham bugungi kun talablarini yaqqol namoyon etadi. Uy-joy, xorijga ishga yuborish, kredit rasmiylashtirish, avtomashina yoki chorva mollari olib berish bilan bogʻliq aldovlar hali ham uchramoqda. Bu esa aholining huquqiy savodxonligini oshirish, internet va ijtimoiy tarmoqlardagi firibgarlik sxemalari haqida doimiy ogohlantirish ishlari kuchaytirishni talab etadi.

Mahallalar kesimidagi tahlillar ham quvonarli natijalarni koʻrsatmoqda. **Viloyatdagi 1 ming 63 ta mahallaning 526 tasida joriy yilning olti oyi davomida birorta ham jinoyat sodir etilmagan.** Bu profilaktika ishlarining ayrim hududlarda yuqori samara berayotganidan dalolatdir. Bugun mahallalarning aksariyati “yashil” toifaga oʻtkazilgani, “qizil” toifadagi mahallalar soni esa sezilarli darajada qisqargani ham amalga oshirilayotgan tizimli ishlarining amaliy natijasidir.

Ayniqsa, **2025-yil yakuniga koʻra kriminogen vaziyati ogʻir deb baholangan 80 ta mahallada amalga oshirilgan “yoʻl xaritalari” oʻz samarasini berdi.** Natijada ularning 44 tasi “yashil” toifaga oʻtdi, “qizil” toifadagi mahallalar soni esa keskin qisqardi. Bu tajriba shuni koʻrsatadiki, aniq reja, manzilli yondashuv va qatʼiy nazorat mavjud boʻlsa, hatto murakkab hududlarda ham ijobiy natijaga erishish mumkin.

Ayni paytda ayrim mahallalar hali ham yuqori xavf toifasida qolmoqda. Bu hududlarda profilaktika ishlari yanada kuchaytirish, aholi bilan manzilli muloqotni kengaytirish, yoshlar bandligini taʼminlash, ijtimoiy muammolarni oʻz vaqtida hal etish va huquqiy targʻibot ishlari tizimli tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi emas. Bu davlat idoralari, mahalla, taʼlim muassasalari, jamoatchilik, oila va har bir fuqaroning umumiy masʼuliyatidir. Huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan har bir chora, ish bilan taʼminlangan har bir yosh, muammosi hal etilgan har bir oila, toʻgʻri yoʻlga qaytarilgan har bir inson jamiyat xavfsizligiga qoʻshilgan munosib hissadir. Ana shunday mahallalarda xavfsiz muhit qaror topadi, jinoyatchilik qisqaradi va mamlakatimizda tinch, osoyishta hamda farovon hayot uchun yanada mustahkam zamin yaratiladi.

Hamidulla SAGDULLAYEV,
viloyat IIB axborot xizmati rahbari.

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI ISHGA TAKLIF QILADI

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat texnika universiteti 7 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha professor-o'qituvchilar tanlovini e'lon qiladi.

Jami 14 ta shtat birligi, har bir yo'nalish bo'yicha 2 tadan (ilmiy daraja va unvonga qarab).

Yo'nalishlar:

- Axborot tizimlari va texnologiyalari;
- Elektr muhandisligi;
- Energetika muhandisligi;
- Kimyo muhandisligi;
- Metallurgiya muhandisligi;
- Mexatronika va robottexnika;
- Libos va gazlamalar.

Lavozimlar:

- Professor;
- Dotsent;
- Katta o'qituvchi;
- O'qituvchi;
- Stajyor-o'qituvchi.

Asosiy talablar:

- tegishli yoki turdosh mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumot;
- lavozimga mos ilmiy daraja, unvon yoxud magistr darajasi;
- KPI mezonlari bo'yicha belgilangan minimal ball;
- davlat tilida dars bera olish;
- zamonaviy ta'lim texnologiyalari, soha dasturiy vositalari va laboratoriya jihozlari bilan ishlash ko'nikmasi;
- akademik halollik tamoyillariga rioya qilish.

Rus yoki ingliz tilida dars bera olish qo'shimcha ustunlik beradi.

**SDTU – JAMOADA XILMA-XILLIK VA INKLYUZIVLIKNI
QO'LLAB-QUVVATLASHGA INTILADIGAN TENG
IMKONIYATLARGA EGA ISH BERUVCHIDIR!**

Hujjatlar:

- rektor nomiga ariza;
- rezюме;
- pasport yoki ID nusxasi;
- diplomlar va ilovalari;
- ilmiy daraja va unvonni tasdiqlovchi hujjatlar;
- ilmiy va o'quv-uslubiy ishlar ro'yxati;
- mehnat faoliyatini tasdiqlovchi hujjatlar, sertifikatlar (mavjud bo'lsa). O'zbek, rus yoki ingliz tilida qabul qilinadi.

Tanlov bosqichlari:

- hujjatlarni ko'rib chiqish;
- ilmiy-pedagogik va amaliy faoliyatni baholash;
- komissiya bilan suhbat;
- namunaviy ochiq dars yoki ilmiy taqdimot;
- natijalarni universitetning vakolatli organi-da ko'rib chiqish.

Muddat:

- 2026-yil 31-avgustga qadar.

Manzil:

Samarqand shahri Lolazor ko'chasi, 70-uy. Samarqand bo'limi (hujjatlar shaxsan topshiriladi).

Mas'ul:

- xodimlar bo'limi boshlig'i Jamolov Aminxo'ja.

**jamolov.aminxoja@samdaqu.edu.uz
+99893-349-47-57.**

To'liq bo'lmagan yoki belgilangan muddatdan keyin topshirilgan hujjatlar ko'rib chiqilmasligi mumkin.

SAMARQAND VILOYATI AHOLISI VA MEHMONLARI DIQQATIGA!

Hozirgi kunda Samarqand viloyati hududiga tegishli ruxsatnomalarsiz va sertifikatlasiz olib kiritilgan hamda sotuvda bo'lgan va ishlatilayotgan radioelektron vositalar, jumladan, mobil aloqa tayanch baza stansiyalarining faoliyati uchun radioxalaqitlar keltirib chiqaruvchi va mobil aloqa xizmatlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi uskunalar (repeater)lar ko'payib ketganligini inobatga olgan holda, Samarqand viloyati elektromagnit moslashuv xizmati o'gohlantiradi:

Mobil kuchaytirgich (repeater)lar O'zbekiston Respublikasi Radiochastotalar bo'yicha Respublika Kengashining 2022-yil 23-avgustdagi 707-sonli qarorining 1-bandida keltirilgan texnik shartlar talablariga mos ravishda o'rnatilgan bo'lishi va boshqa turdagi radioelektron vosita (REV)larga radioxalaqitlar bermasligi kerak. Mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlarga mos kelmaydigan boshqa mobil aloqa tarmoqlari signallarini kuchaytirib beruvchi retranslyator qurilmalari O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqish (yaratish), modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish va xorijdan olib kirish (xorijdan xarid qilish) hamda ulardan foydalanish qat'iy man etiladi.

Mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlarni bajarish hamda mobil aloqa tarmoqlariga xalaqitli ta'sirlar keltirmaslik talablariga majburiy rioya qilgan holda mobil aloqa tarmoqlari signallarini kuchaytirib beruvchi retranslyator qurilmalari O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarish, modernizatsiya qilish va o'rnatish bo'yicha ishlarni bajarishga (shu jumladan, ularga xizmatlar ko'rsatishga) faqat faoliyat turi bo'yicha tegishli litsenziyaga ega bo'lgan yoki mobil aloqa operatorlari nomidan shartnoma asosida ish yurituvchi yuridik shaxslarga ruxsat etilishi;

O'zbekiston Respublikasi hududiga mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlarga mos keladigan retranslyator qurilmalarini xorijdan olib kirish, radiochastota organlarining o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan olib kirish ruxsatnomasiga asosan amalga oshirilishi;

Retranslyator qurilmalaridan foydalanuvchilar o'zlari tomonidan foydalanilayotgan qurilmalardan mobil aloqa operatorlari tarmoqlariga radioxalaqit hosil bo'lishining oldini olish uchun barcha zarur bo'lgan tashkiliy-texnik choralarni ko'rishlari kerakligi;

Mazkur qarorning 1-bandida keltirilgan texnik shartlarga mos kelmaydigan boshqa mobil aloqa tarmoqlari signallarini

kuchaytirib beruvchi retranslyator qurilmalarini O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqish (yaratish), modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish va xorijdan olib kirish (xorijdan xarid qilish) hamda ulardan foydalanish qat'iy man qilinishi ko'rsatilib o'tilgan.

Viloyat hududiga ruxsatnomasiz va sertifikatsiz olib kiritilgan hamda sotuvda bo'lgan va ishlatilayotgan, mobil aloqa tayanch baza stansiyalarining faoliyati uchun radioxalaqitlar keltirib chiqaruvchi va mobil aloqa xizmatlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi uskunalar (repeater)lar o'rnatilgan tartibda musodara qilinadi va ularni olib kirishni amalga oshirgan shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik choralari ko'riladi.

O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi "Elektromagnit moslashuv markazi" Samarqand viloyati elektromagnit moslashuv xizmati turli diapazonlardagi radioaloqa vositalariga, televideniye va radioeshittirish (TV va RE) dasturlarini qabul qilishga ta'sir etuvchi radioxalaqitlarni bartaraf etish uchun jismoniy va yuridik shaxslardan buyurtmalarni qabul qiladi.

Radioxalaqitlarni bartaraf etish ishlari O'zbekiston Respublikasining "Radiochastota spektri to'g'risida"gi Qonuni asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi "Elektromagnit moslashuv markazi" Samarqand viloyati elektromagnit moslashuv xizmati o'gohlantiradi:

Respublika hududiga ruxsatnomasiz va sertifikatsiz olib kiritilgan hamda sotuvda bo'lgan va ishlatilayotgan radioelektron vositalari (uzoq masofali radiouzatkichlar, portativ radiostansiyalar va boshqa radiouzatkich vositalari) o'rnatilgan tartibda musodara qilinadi va ularni olib kirishni amalga oshirgan shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik choralari ko'riladi.

Radioelektron vositalarni respublika hududiga olib kirish uchun ruxsatnoma olishni va o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tkazishni rasmiylashtirish masalalari bo'yicha Samarqand viloyati elektromagnit moslashuv xizmatiga murojaat qilishingiz mumkin.

**Manzil: Samarqand tumani "O'rtashiq" MFY, Register ko'chasi, 20-uy.
Telefonlar: 66-616-43-45, 66-616-44-15.**

SAMARQAND VILOYATI ELEKTROMAGNIT MOSLASHUV XIZMATI.



HAMKORLIKKA TAKLIF ETAMIZ!

Payariq tumani Xo'ja Ismoil shaharchasida joylashgan Imom Buxoriy yodgorlik majmuasini saqlash departamenti muhandislik va kommunikatsiya tizimlariga texnik-profilaktika va ekspluatatsiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha malakali korxona va tashkilotlarni hamkorlikka taklif etadi.

Xizmat ko'rsatish yo'nalishlari:

1. Isitish, sovutish va ventilyatsiya tizimlari;
2. Elektr ta'minoti va dizel generatorlari;
3. Gaz, santexnika va ichimlik suvi tizimlari;
4. Lift, eskalator va boshqa ko'taruvchi mexanizmlar;
5. Yong'inga qarshi xavfsizlik, videokuzatuv va xavfsizlik tizimlari;
6. Axborot-kommunikatsiya va IT uskunalari.

Manfaatdor tashkilotlar texnik topshiriq asosida obyektini joyida o'rganib, tijoriy takliflarini taqdim etishlari so'raladi.

Takliflarni qabul qilish muddati: 15.08.2026-yilga qadar.

**MANZIL: Payariq tumani Xo'ja Ismoil shaharchasi, Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi.
Telefon: +99897-408-44-55.**

BEKOR QILINADI

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetidan 2006-yilda Xamidova Umidova Abdilakimovna nomiga berilgan ro'yxatga olish raqami 1567, B № 257895 raqamli diplomning ilovasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Payariq tumanidagi "DILNOZA ZAYNIDDINOVNA" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 304420811) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

DA'VOLAR BO'LSA...

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Shakarov Vaxob Turdiyevichga (2019-yil 18-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloq ko'chasi, 13-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Bekmatov Amonkulga (2015-yil 15-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Yusupova Qurbanga (2009-yil 3-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Olimov Samejonga (2022-yil 25-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu

munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Fayzullayev Barotga (2023-yil 24-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasida marhum Mirzayev Radjab-ali Raimovichga (2019-yil 2-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayev Hamid Azimurodovich notarial idorasida marhum Abasov Akbarga (2021-yil 22-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayev Hamid Azimurodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Sariyeva Moxiraga (2016-yil 7-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Fozilov Miraliga (2026-yil 10-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani O'rtashiq mahallasi.

BEKOR QILINADI

Sotuvchi "XURSHIDA SHIRINLIK LARI" MCHJ nomidan Namazov Baxodir Keldiyarovich va sotib oluvchi Murodova Ozada Keldiyarovna o'rtasida Samarqand shahri "Guliston" MFY, Sartepa maskani, 158-"B" uy, 8-sonli kvartira uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasidan 2021-yil 30-sentabrda tasdiqlanib, Ksh 071306 SA blankada tuzilgan, 202101714004212 raqam bilan reestrga kiritilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.



Yil yakunigacha viloyatda qirqqa yaqin sport maydonchasi quriladi

Ularning texnik holatiga kim javobgar bo'ladi?

2022-2025-yillarda viloyatda aholini ommaviy sportga keng jalb etish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda zamonaviy sport infratuzilmasini yaratish maqsadida sport vazirligi tomonidan 143 ta sport maydonchasi barpo etilgan. Ularning 56 tasi universal, 67 tasi strit-vorkaut va 20 tasi vorkaut sport maydonchalardir. Mazkur inshootlarning 43 tasi mahallalarda, 96 tasi umumta'lim maktablarida, 3 tasi sport-ta'lim muassasalarida hamda bittasi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hududida qurilgan.

– Yil yakuniga qadar viloyatda yana 37 ta sport maydonchasini barpo etish rejalashtirilgan, – deydi viloyat sport boshqarmasi bosh mutaxassisi Nuriddin Mavlonov. – Ayni paytda o'tgan yil "Besh tashabbus olimpiadasi"da g'olib bo'lgan yoshlar mahallalarida 20 ta sport maydonchasi qurilmoqda. Ularning 10 tasi universal, 5 tasi strit-vorkaut va 5 tasi vorkaut sport maydonchalardir. Shuningdek, "Tashabbus.sport.uz" loyihasi doirasida eng ko'p ovoz to'plagan mahallalarda 16 ta sport maydonchasini qurish uchun ruxsatnomalar rasmiylashtirilmoqda. Ushbu loyiha doirasida 13 ta strit-vorkaut sport maydonchasi barpo etiladi. Bundan tashqari, Sport vazirligi tomonidan Samarqand tumani Qozoqqo'rg'on mahallasi hududida yana bir universal sport maydonchasi qurilishi belgilangan.

Prezidentning 2023-yil 28-iyulda-gi "Mahallalarda sport infratuzilmasini rivojlantirish va sport maydonchalaridan samarali foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, sport maydonchalarining joylashuv hududidan qat'i na-

zar, jumladan, ta'lim tashkilotlari hududida sport maydonchalar ham darsdan tashqari vaqtlarda barcha fuqarolar uchun bepul va vaqt cheklovizis foydalanishga taqdim etiladi. Shuningdek, sport maydonchalaridan samarali va maqsadli foydalanishni tashkil etish mahallalardagi yoshlar yetakchilari hamda profilaktika inspektorlari tomonidan amalga oshiriladi.

– Prezident qaroriga ko'ra, mahallalarda barpo etilgan sport maydonchalarining texnik holatini nazorat qilish, ulardan samarali foydalanishni ta'minlash va joriy ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida amalga oshirish balansda saqlovchi tashkilotlar zimmasiga yuklatilgan, – deydi Nuriddin Mavlonov. – Shu bilan birga, sport maydonchalarining tozaligini saqlash va atrofini obodonlashtirish ishlarini uchun Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi jamoat ishlari jamg'armasi mablag'lari hisobidan bitta shtat birligi ajratilishi belgilangan. Afuski, aksariyat hududlarda mazkur shtat birligi ajratilmagan sababli sport maydonchalari qarovsiz qolmoqda. Xususan, o'tgan yillar davomida o'tkazilgan o'rganishlar davomida sport maydonchalaridagi tungi yoritish chiroqlari shikastlangani, to'r setkalari, rezina qoplamalar hamda boshqa sport jihozlari yaroqsiz holatga kelib qolgani aniqlandi. Shu bois sport maydonchalaridan samarali foydalanish va ularning texnik holatini asrash uchun balansda saqlovchi tashkilotlar hamda mahalla faollari hamkorlikda ishlashi, har bir maydonchaga mas'ullar biriktirilishi zarur. Shundagina obyektlar aholiga uzoq yillar xizmat qiladi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Mehnat qilishga imkoniyat berildi

ammo undan foydalanish nega qiyinlashdi?



Ba'zan inson hayotida shunday lahzalar bo'ladi, oddiy bir suhbat ortida butun bir taqdir yashiringanini sezib qolasan.

Yaqinda bir tanishimni uchratib qoldim. Hol-ahvol so'rashdan boshlangan suhbat bir zumda hayotning achchiq haqiqatlari, insonning sabri va tizim oldidagi savollar haqidagi og'riqli mulohazaga aylandi.

Uning yuzida charchoq bor edi. Ammo bu charchoq mehnatdan emas, hayotda uchrayotgan to'siqlardan edi.

U yo'l chetida turgan uch g'ildirakli motoroller ishora qildi.

– Uka, mana shu motoroller mening tirikchilгим...

U bu gapni oddiy aytdi. Ammo bu oddiy jumla emasligini darrov his qildim. Chunki ba'zi narsalar inson uchun buyum bo'lib qolmaydi. Ular hayotning bir qismiga aylanadi.

Uning uchun bu uch g'ildirakli motoroller shunchaki temir va motordan iborat texnika emas edi. Bu - uning rizqi. Bu - uyiga kirib kelayotgan halol mehnat samarasi. Bu er-

talab uyidan chiqib, «men ham oilam uchun kerakman», degan ishonch bilan yashash imkoniyati edi.

– Shu bilan ro'zg'orimni tebrataman, uka. Sut-qatiq sotaman, hovlimdan chiqqan mahsulotlarni, yetmasa odamlardan olib bozorga chiqaraman. Shuning ortidan kun ko'raman, imtiyozli kreditga olganman, uni ham to'lashim kerak. Alimant majburiyatim bor. Men hech kimdan tekin narsa so'ra-mayapman. Faqat ishlab, halol mehnat qilib yashamoqchiman...

Uning ovozida shikoyatdan ko'ra alam bor edi. U davlatga boqimanda inson emas. Aksincha, berilgan imkoniyatdan foydalanib, o'z hayotini o'zi qurishga harakat qilayotgan inson.

Ammo ba'zan insonni hayotning o'zi emas, insonlar yaratgan tushunarsiz to'siqlar ko'proq charchatadi.


– Lekin shuni ham bemalol hayday ol-mayapman, uka...

– Nega, aka? – dedim.

U bir laha jim qoldi.

Усмон – ота давр ва шахс тақдири ёки Ўзбекистон тарихида ўчмас из қолдирган раҳбар хотираси

Ҳаётда шундай инсонлар бўладики, уларнинг ҳаёт йўли бир авлод эмас, балки бутун бир давр тақдири билан уйғунлашиб кетади. Усмон Юсупов ана шундай мураккаб тарихий шароитда яшаб, фаолият юритган давлат арбобларидан бири эди. Унинг номи XX аср Ўзбекистон тарихининг энг синовли йиллари - катта сиёсий ўзгаришлар, уруш машаққатлари ва тикланиш жараёнлари билан боғлиқ ҳолда тилга олинади.



Бугун Усмон Юсупов ҳақида ёзиш фақат бир раҳбарнинг ҳаёт йўлини эслаш эмас, балки ўтган асрда халқимиз бошидан кечирган оғир ва мураккаб жараёнларга назар ташлашдир. Чунки ҳар бир тарихий шахс ўз даврининг фарзанди бўлиб, унинг фаолияти ўша замоннинг имкониятлари ва чекловлари билан белгиланади.

Шу сабаб Азиз Қаямовнинг "Усмон ота" китоби советлар тузumi давридаги сиёсий, ижтимоий-маданий ҳаётга қизиқувчилар, тадқиқотчи ва кенг китобхонлар оmmasiga ажойиб тўхфа дейиш мумкин. Асарга Шароф Ўбайдуллаев ва бошқа улуг'ларимизнинг ҳам ҳиссаси қўшилгани унинг қиймати ва қадрини янада оширган.

ВОДИЛЛИК БОЛАКАЙНИНГ РАҲБАРЛИККАЧА БЎЛГАН ЙЎЛИ

Усмон Юсупов 1900 йилда Фарғона вилояти, Водил туманида туғилган. У ёшлигидан меҳнат муҳитида камол топиб, ҳаётнинг қийинчиликларини кўрди. Оддий меҳнатдан бошланган йўли уни давлат бошқаруvinинг юқори поғоналарига олиб келди.

Унинг фаолиятида ташкилотчилик, интизом ва масъулият каби жиҳатлар алоҳида ўрин тутган. Ўша давр раҳбарлари олдида турган вазифалар ниҳоятда катта эди: иқтисодийetni ўзгартириш, янги корхоналар барпо этиш, қишлоқ хўжалигини қайта ташкил қилиш ва давлат режаларини амалга ошириш талаб этиларди.

1937 йилда Усмон Юсупов Ўзбекистон Компартияси Марказий Қўмитасининг биринчи котиби этиб тайинланди. Унинг раҳбарлик даври мамлакат тарихидаги энг зиддиятли йилларга тўғри келди.

Водилдаги оддий оиладан чиққан болакайнинг республика раҳбарлигигача бўлган йўли китобда батафсил ҳикоя қилади.

УРУШ ЙИЛЛАРИДАГИ МАСЪУЛИЯТ

1941 йилда бошланган Иккинчи жаҳон уруши Ўзбекистон ҳаётида ҳам чуқур из қолдирди. Республика қисқа вақт ичида фронт ортидаги муҳим ҳудудлардан бирига айланди. Кўплаб sanoat корхоналари Ўзбе-

кистонга кўчирилди, минглаб одамлар эвакуация қилинди.

Бу жараён улкан ташкилий ишларни талаб қилди. Корхоналарни жойлаштириш, уларни ишга тушириш, ишчиларни таъминлаш, фронт эҳтиёжлари учун маҳсулот ишлаб чиқариш каби вазифалар кун тартибиде турган эди.

Ўша йилларда ўзбек халқи кўрсатган меҳнат жасорати тарихимизнинг ёрқин саҳифаларидан бири бўлиб қолди. Заводларда туну кун меҳнат қилган ишчилар, ҳосил етиштирган деҳқонлар, фронтга ёрдам кўрсатган фидойи инсонлар умумий ғалабага муносиб ҳисса қўшди.

Усмон Юсупов ана шу жараёнларни бошқарган раҳбарлардан бири сифатида тарихда қолди. Унинг зиммасига юкланган вазифалар оддий маъмурий иш эмас, балки бутун республика ҳаётига даҳлдор катта масъулият эди.

ТАРАҚҚИЁТ ВА ЗИДДИЯТЛАР ОРАЛИҒИДА

У.Юсупов раҳбарлиги йилларида Ўзбекистонда sanoat ва қишлоқ хўжалиги соҳаларида катта ўзгаришлар амалга оширилди. Янги корхоналар ишга туширилди, ишлаб чиқариш имкониятлари кенгайтирилди, ирригация ва қишлоқ хўжалиги соҳаларида йирик ишлар бажарилди.

Шу билан бирга, бу давр совет маъмурий тизими ҳукмрон бўлган, сиёсий қарорлар асосан марказлашган ҳолда қабул қилинган мураккаб давр эди. Шу сабабли тарихий шахсларга баҳо беришда фақат натижалар эмас, балки улар фаолият юритган сиёсий муҳит ҳам инобатга олиниши лозим.

"Усмон ота"да ана у жиҳатлар ҳолислик билан - шахснинг хизматларини ҳам, даврнинг мураккаб жиҳатларини ҳам биргаликда тасвирланган.

Усмон Юсупов замондошлар хотираларида талабчанлиги, ишчанлиги ва қарор қабул қилишда қатъиятли бўлгани таъкидланади. У раҳбар сифатида интизомга катта аҳамият берган, вазифаларни бажаришда масъулиятни биринчи ўринга қўйган.

Унинг ҳаётида оддий инсонларга хос кечинмалар ҳам бор эди: оғир қарорлар олдидаги масъулият, давр талаблари билан ҳисоблашиш, халқ ва давлат манфаатлари ўртасидаги мураккаб вазифалар. Айнан шу жиҳатлар тарихий шахсни тирик хотирага айлантиради.

Усмон Юсупов 1966 йилда вафот этган. Аммо унинг номи Ўзбекистоннинг XX аср тарихидаги муҳим шахслар қаторида сақланиб қолди.

Усмон Юсупов хотираси бу бир инсон хотираси эмас, балки бутун бир тарихий даврни англашга хизмат қиладиган маънавий меросдир. Азиз Қаямовнинг "Усмон ота" китоби эса ана шу меросни ўзида акс этиргани билан ҳам аҳамиятли.

Ё.МАРҚАЕВ.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

13-AVGUST

Foziljon ABDURAUPOV – 1948-yil Samarqand tumanida tug'ilgan. Faxriy jurnalist.

15-AVGUST

Telman RAJABOV – (1935-2020) Samarqand shahrida tug'ilgan. Fizik olim.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi.

Nabijon HASANOV – (1913-1972) Samarqand shahrida tug'ilgan. O'zbekiston

xalq artisti, bastakor.

16-AVGUST

Rustam XOLMURODOV – 1949-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. Samarqand davlat universiteti rektori, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, Oliy Majlis Senati a'zosi.

20-AVGUST

Begmamat ESHQUVVATOV – 1938-yilda Past Darg'om tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Fanlari akademiyasi akademigi.

28-AVGUST

G'ulomjon BOYMURODOV – 1969-yilda Bulung'ur tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan aloqa xodimi.

Mulohaza



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 257 nusxada chop etildi. Buyurtma 308. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

G.MO'MINOVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda